

**‘O‘ZBEK ADABIY TARIXI TANQIDI TARAQQIYOTI; YUTUQ VA
KAMCHILIKLARI’
AVLONIYNING ‘TURKIY GULISTON YOHUD AXLOQ’ ASARI HAQIDA**

*Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiya fakulteti talabasi
Malikova Madina*

Anotatsiya. Avloniy asarlari ichida Turkiy guliston yoxud Axloq asari eng sara nodir asarlaridan biri hisoblanadi. Bu asarni tanqid qilinishi va uning jahon mqiyoqidagi ahamiyati.

Kalit so‘zlar: Avloniy asarlari, Avloniy faoliyati Turkiy guliston yuhud axloq, tanqidchilar talqinida, asarning tsrbiyaviy ahamiyati, tarbiya, axloq, odob.

Kirish

Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo‘shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. 1906-yildan she‘rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o‘rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarini o‘qigan bazilari [masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Usheniskiy asarlari]ni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda ‘‘Taraqqiy’’, 1907-yilda o‘z uyida ‘‘Shuhrat’’ gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopilgach, 1908-yilda yashirin ravishda ‘‘Osiyo’’ gazetasini nashr etdi. 6-sonida so‘ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo‘ygan. Avloniy birinchi bo‘lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o‘qitish taklifini berdi. Ilg‘or g‘oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bollari uchun yangi usul maktabini ochib 1908-yilda o‘zi ona tili va adabiyotidan dars berdi. 1909-yilda ‘‘Jamiyati xayriya’’ tuzib, yetim bollarni o‘qitgan. Shu yili ‘‘Adabiyot yoxud milliy she‘rlar nomli to‘rt qisimdan iborat she‘riy to‘plamning birinchi juz‘ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o‘qitilishi bilan maktabxonlardan farq qilgan. Avloniy yangi maktablar uchun qo‘llanma va o‘qish kitoblar yozib nashr qildirgan. Misol uchun ‘‘Birinchi muallim’’ 1911-yil ‘‘Ikkinchi muallim’’ 1912-yil ‘‘Turkiy guliston yoxud axloq; 1913; 4juzd [qism]li Adabiyot yoxud milliy she‘rlar to‘plami. 1909-1915 ‘‘Maktab gulistoni’’, 1915, ‘‘Mardikorlar ashulasi va boshqalar. Munavvar podshoxo‘jaye, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jaye, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda ‘‘Maktab’’ [1916] shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san‘atida ham foydalangan. U 1913-yilda truppasini tashkil etishadi va uning ishida faol qatnashgan 1910-1916-yillarda bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va Avloniyning sahna asarlari Toshkent Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda qo‘yilgan. Bu

asarlarda XX asr boshlarida hayotning keng manzalari o'z ifodasini topgan. Avloniy asarlari; Advokatlik osonmi, Pinak, Biz va siz, Portugaliya inqilobi, Ikkinchi muhabbat, Bo'ron kabi pesalari, Tulki ila qarg'a masali, Vatan, Maktab, Bog'cha, Yalqov shogird tilidan, Tog'lardan bir manzara, Millatga xitob, Ko'klam keldi, Tovush kabi she'rlari Maqsad va maslak, Holimizga doir kabi maqollari Hasad balosi majoziy hikoyasi va boshqalar.[7]

Avloniy qatag'on qilinagan, xalq dushmani sifatida qoralanmagan bo'lsa-da lekin 1966-yilgacha uning o'rganilmagan.[5]O'limidan so'ng asarlari chop etilmagan. Uning ijodini Begali Qosimov tadqiq etgan va Abdulla Avloniy asarini yozgan. 1968-yilda Avloniy yodgorlik uy-muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda Avloniy nomidagi 2ta mahalla madaniyat uyi milliy-tadqiqot instituti mavjud 2019-yilda Avloniyning Afg'onistondagi missiyalari to'g'risida hikoya qiluvchi "Avloniy" film premyerasi bo'lib o'tgan. Shoir Muhammad Ali o'zi "Boqiy dunyo" 1979-yilda she'riy romanida Abdulla Avloniy asar qahramonlaridan biri sifatida tasvirlangan.

Asosiy qisim

Malumki inson barkamolligi uning tashqi ko'rinishiga qarab emas balki uning ma'naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatda yashovchilarning ma'naviy kamolatiga bog'liq.

Zero ma'naviy qashshoq insonlar bilan kelajagi porloq jamiyat qurib bo'lmasligi hayot haqiqatidir. Barkamol insonni tarbiyalash vazifasi esa muayyan darajada maktab zimmasiga yuklatilgan. Demak, ertangi kun egalari bo'lmish farzandlarimiz kamoloti ana shu ilim maskani bilan bog'liq. Bas shunday ekan butun e'tiborimizni maktabda olib borilayotgan ta'lim- tarbiya ishiga qaratmog'imiz lozim. Bu esa asosan tarbiyachi-murabbiyga, u olib borayotgan tarbiyaviy ish samaradorligiga bog'liq. Odamlar o'rtasida mehr-oqibat, haqiqiy insoniy munosablarni qaror toptirishda sinf tarbiyaviy soatlari xushaxloqlik tarbiyasi bebaho boyligidir. Tarbiya vositasida yosh avlodni yetuk insonlar qilib yetishtirish oldimizda turgan eng dolzarb mavzulardan biridir desam hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan o'z vataniga o'z millatiga- xalqiga sadoqat, fidoyilik bag'ri kenglik, adolatlilik kamtarlik, mehr- muruvvatlilik, o'zligini anglash sevgi, vafo, ilmga chanqoqlik, yuksaklikka intilish, mehnatsevarlik, bardoshlilik, sabr-qanoat, saxovatlilik, jasoratlilik, ogohlik turli illatlarga qarshi kurashuvchanlik, andishalik, mehmonnavozlik, do'stlik, va birodarlikni, ulug'lash, avlod-ajdodlarga cheksiz hurmat- ehtirom o'z millati tilini va qadriyatlarini avaylab-asrash kabilar millatimizga xos xususiyatlardir.

1913-yilda quyida keltirilgan xususiyatlarni o'zida jamlagan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bosilib chiqdi. [9] Ushbu asarida Abdulla Avloniy tarbiyada bollarning fikrini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor

bilan qaratadi. Negaki, fikrlash iqtidorini egallash oliyanob g'oyalar tomon intilish demakdir. Shunday ekan, aqlli odamning axloqsiz bo'lishi qiyin.

Muallifning fikricha aql bilan ish tutish –fatnat sayg'ayrat shijoat im egallash, pokizalik, nazokat sabr-toqat intizom vijdonli bo'lish, vatanni sevish haq talablik, hamma munislik va xayrixohlik sadoqat, adolat, muhabbat, afv kabilarni yaxshi xulq sirasiga kiritadi va mukammal inson uchun zarur bo'lgan fazilatlar deb hisoblaydi. Adib bularning har biriga alohida to'xtalib o'tadi. O'z mulohazalarini dalillash uchun Aristotel, Platon, Gippokrat, Sa'diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutaffakkirlarning fikrlarini keltirdi. Adib har bir axloqiy kategoriyaga o'z munosabatini bildirganda, albatta, o'sha fikrni ifodalovchi bayt yoki biror maqola-hikmat ilova qiladi.

Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lib o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurg'on bo'lmasa asarlari orasidan g'o'ng'illab yurgan qovog'arilar kabi quruq g'o'ng'illamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa narsa emasdir. Boshimizga keladurg'on qattiq kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun "Ko'p o'yla, oz so'zla"-demishlar. Inson tili suyaksiz deganlaridek gohida jaxlimiz chiqqanda tilimizdan chiqayotgan so'zlarni bazida o'zimiz eshitolmaymiz va o'zimiz xoxlamasakda yaqinimizni dilini og'ritib qo'yamiz keyin afsuslanib vijdon azobida o'zimizni qiynaymiz.[11] Jaxl kelsa aql ketadi deganlaridek inson har qanday vaziyatda ham o'zini bosib turolishi o'zini boshqara olishi kerakdir. Manaviy tomondan yetuk inson albatta bu borada hech qiynalmasdan o'zini boshqara oladi va tildan chiqayotgan har bitta gapiga albatta etibor berib gapirayotgan gaplarini o'ylab keyin gapiradi. Aksinchi ma'naviy bo'shliqga ega inson yuqoridagilarning mutloq teskari variantini qiladi, negakim aqilsiz inson ma'naviyatsiz saviyasi past inson o'zini tildan chiqayotgan gaplarini qulog'i eshitmaydi, buning oqibati esa har doim salbiy yomon holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun har bitta inson o'zi gapirayotgan gapiga albatta e'tibor berishi va avval o'ylab keyin suylash darkordir. Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar agar nafs tarbiya topib yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa yaxshilikga tavsif bo'lub yomon xulq deb atalur.

Avloniy shu bilan birga so'zning inson qadr qimmatini belgilashdagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho beradi. So'zning ma'nosiga alohida diqqat qiladi. Til va so'z odobiga oid umuminsoniy fikirlarni davom ettiradi. So'z insonning daraja va kamolini ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini ilm va quvvatini qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar.

Insonni bezaydigan sifatlar ko'p. Chinakkam inson yalqovlik va dangasalikni o'ziga deb biladi. Yoshligidan ilm ma'rifatga, hunar va san'atga mehr qo'yadi. Mehnatning aybi yoq. Qora ishchi bilan olimning zahmati ko'rinishdangina tafovutli. Ammo ularning har ikkisi ham mehnat qiladi. Mehnat bn kun kechirish esa buyuk

saodat. Aksincha bu ko'mirchilik bu temirchilik- manga munosib ish emas deb dangasalik qilub, ishsiz yursa zo'r ayb g'ayratsizlikdur.

Shuningdek inson moddiy ne'matlarni yaratishdan tashqari ularning qadriga ham yeta bilmog'i kerakligi haqida to'xtaladi. Bular o'zaro juda yaqin, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan tushanchalardir. Kimki bir parcha nonni mehnat bilan topsa, uning qadriga ham yetadi. Shuning uchun ham yosh bolani kichikligidan mehnatga ilmga mehr quydirib o'stirish lozim zeroki katta bo'lganda ham qiyinchilik kelsa ham o'zi yengib o'tolishi kerak buning uchun esa albatta mustahkam iroda matonat aql kerakdir.

Abdulla Avloniy bobomiz Qanoat to'g'risida ham judayam bir go'zal jummalarni keltirib o'tganlar. Qanoat deb janobi Haq tarafidan inson bo'lgan ahvolga yetishganimiz nemat va molga shukr boshimizga kelgan faqr musibat falokatlarga chidab sabr qilmoqni aytadurlar. Qanoat hasad tama hirs xorlik kabi illatlarning davosi nafsimizning g'inosidur. Qanoat nir xazinadurki naqdinasi kundan kun ortar. Bu xazinaga ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar. Buning ila barobar qanoatsizlikdan paydo bo'ladurg'on hasad degan jonning eng zor' dushmanidan qutulurlar. Chin insonlar kishining na moliga na mulkiga hasad qilmas qanoatidan ayirlmas umrini rohatda o'tkazur. Inson har bir ishiga o'zining kuchi bilan erishmog'I haq taolo tomonidan nimayiki berilsa hammasiga qanoat qilib yashamog'I darkordir. Shundagina inson o'zing mustahkam irodasi ma'naviy tomondan yetuk inson bo'lib yetishayotgani ko'ra oladi. Biz uchun har bitta berilayotgan sinovlarni yokida boshimizga tushgan qiyinchiliklar buladimi barcha barchasiga qanoat ila yengim o'tmog'imiz kerak shundagina bu qilgan qanoatimiz uchun ham albatta Alloh tomonidan mukofotlanarmiz zero Haq taolo har bir qanoatli nafsini tiyolgan va borida shukur qilib yog'ida sabrli bo'lgan bandalarini sever.

Xulosa

Demak aytish mumkunki, "Turkiy guliston yoxud axloq" Sadiyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan axloq kitobidir. [10] "Turkiy guliston yohud axloq" ning uchinchi nashrini 1967-yil "O'qituvchi" nashiryoti amalga oshiradi. Bunda asarda diniy iboralar, "Hadislar" dan olingan hikmatlar davr talabiga ko'ra tushirib qoldirildi

Axloq haqida Avloniy shunday fikrlarni bildiradi; "Insonlarni yaxshiliqga chaqirguvchi yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini yomon xulqlarning yomonligini dalil bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini janobi Haq na uchun xalq qilganin yer yuzidan nima ish qilmak uchun yurganing bilur. Abdulla Avloniyning "Xulq" to'g'risidagi fikrlari ham ahamiyatlidir. Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila

yaxshi yomondan oqni qoradan ayirur. Jasadning ham nafsning ham biror suratli bordurki yo yaxshi yo yomon bulur.

Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari har bir insonni tarbiyaga ta’limga chorlovchi bo’limlarga bo’lingan bo’lib har bir insonga ma’naviy ozuqa berib insonni kamolotga yetkazadi. Bu asarda Xulq, axloq, badan tarbiyasi, axloq, tarbiya, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat,riyozat, shijoat va yana bir qancha ta’limiy tarbiyaviy bo’laklarga bo’lib barchasida insonga juda kerakli bo’lgan barcha ma’naviy ma’lumotlar berilgan. Bu asarni har bir yosh avlod albatta o’qishi lozim deb o’yliman, negakim yosh avlodni kichikligidan yaxshi ta’lim tarbiya berib o’stirmoq lozim demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari
2. “MASTURA.UZ” Sayitidan
3. “Turkiy guliston yoxud axloq “ asaridagi tarbiyaviy qarashlar
4. [5] MAS.UZ-S.35
5. [7] A.A “TGA”-S. 72
6. [10] “TGA” –S.55
7. [11] MAS.UZ-S. 47
8. [12] A.A “TAG”-S.88
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq-Toshkent 2008.
- 10.2.Begali Qosimovning va boshqa Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti.- Toshkent; Ma’naviyat, 2004.
- 11.Mirzayev S. O’zbek adiblari.-Toshkent; Fan,2002
- 12.Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.- Toshkent;2008
- 13.Mastura.Uz